

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LOR SOHASIGA OID TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK YO‘L BILAN SHAKLLANISH JARAYONI

Kalimbetova Dilnoza Azamatovna,

Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

dilnoza.kalimbetova1992@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy ishda ingliz va o‘zbek tillaridagi LOR terminlarining o‘zaro muvofiqlik darajasi, ularning semantik tuzilishi va qo‘llanilish xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan yoritiladi. Ayniqsa, bir tildagi tushunchaning ikkinchi tilda ifodalanish usullari, terminlarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan semantik siljishlar va ekvivalentlik muammolariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqot natijalari tibbiy terminologiyani tizimlashtirish, ikki tilli lug‘atlar tuzish, shuningdek, LOR sohasida ilmiy va amaliy muloqot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: terminologiya, LOR, semantika, ekstralingvistik, leksik-semantik, termin, omonim, leksema, lug‘aviy.

Abstract. In this scientific work, the degree of compatibility of ENT terms in English and Uzbek, their semantic structure, and usage features are highlighted from a comparative-typological perspective. In particular, special attention is paid to the methods of expression of a concept in one language in another, semantic shifts and equivalence problems that arise in the process of translation of terms.

The results of the research are of great importance in the systematization of medical terminology, the compilation of bilingual dictionaries, as well as in increasing the effectiveness of scientific and practical communication in the field of ENT.

Keywords: terminology, ENT, semantics, extralinguistic, lexical-semantic, term, homonym, lexeme, vocabulary.

Аннотация. В данной научной работе в сравнительно-типологическом аспекте освещается степень соответствия ЛОР-терминов в английском и узбекском языках, их семантическая структура и особенности употребления. Особое внимание уделяется способам выражения понятия в одном языке на другом, семантическим сдвигам и проблемам эквивалентности, возникающим в процессе перевода терминов.

Результаты исследования имеют важное значение для систематизации медицинской терминологии, составления двуязычных словарей, а также повышения эффективности научного и практического общения в области ЛОР.

Ключевые слова: терминология, ЛОР, семантика, экстралингвистическая, лексико-семантическая, термин, омоним, лексема, словарный запас.

Kirish. Har bir tilning struktur jihatdan tuzilishi alohida darajalardan, sathlardan tashkil topgan tizimdir. So‘z yasaliş darajasiga va jarayoniga kelsak, tilshunoslikda bu borada bir qator qarashlar mavjud. Tilda so‘z yasaliş jarayoni dinamik jarayon bo‘lib, bugungi kunga qadar ko‘plab usullar orqali amalga oshirilib kelingan. Shu ma’noda, ayrim terminlar tilda paydo bo‘ladi, shakllanadi, eskiradi va muayyan vaqt taqozosi bilan iste’moldan chiqib ketadi. Ba’zi til birliklari esa lisoniy talab hamda ehtiyoj mavjudligi sababli tilda “yashab” qoladi. Shunisi ham borki, ekstralingvistik omillardan tashqari, lingvistik omillar tufayli tilning lug‘aviy fondi muttasil boyib boradi. Bu jarayonda so‘z yoxud terminlarning turli usullar vositasida yasaliş muhim ahamiyatga ega. Har qanday til hodisasi singari so‘z yasaliş jarayoni ham o‘zining ichki qonuniyatlariga muvofiq ilmiy-nazariy asosini topishi va shunga mos tarzda o‘z vaqtida lisoniy tavsiflariga ega bo‘lishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'z yasash tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida qaraladi. Bu odatda derivatologiya tushunchasi bilan ma'lum. Bugungi kunda chog'ishtirilayotgan tillar ingliz va o'zbek tilshunosligida so'z yasashi o'zining obykti, muammolari, o'ziga xos birliklari va tadqiqot metodologiyasiga ega bo'lgan tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida maydonga kelgan. Shu bilan birga, o'zbek tilining lingvistik tizimining organik qismi bo'lgan derivatologiya aspekti ushbu tilning har biri bo'limi bilan muayyan aloqada bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili. Tadqiqotga oid manbalarni tahlil qilish natijasida shu narsa ayon bo'ladiki, tilda diaxronik nuqtayi nazardan olib qaralganda, so'z yasashning 20ga yaqin usuli mavjud [1, 238]. Ularning aksariyati esa an'anaviy tasniflash so'z yasovchi xususiyatlariga asoslanadi. V.N.Nemchenkning fikriga ko'ra: "...so'z yasash usuli til birliklarining tuzilishi va ularning hosil bo'lishi bilan uzviy bog'liq jihatlarni anglatadi" [2]. Olim o'z so'zini davom etar ekan, tilshunoslikda asosiy so'z yasash usullari sifatida morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-sintaktik va leksik-semantik usullarining quyidagi shakllarini taklif qiladi.

Tilshunos olim T.V. Jerebilo leksik-semantik usul haqida so'z yuritar ekan, u ushbu usulni zamonaviy tilshunoslikda sermahsul usullardan biri ekanini ta'kidlagan holda, "...tilda mavjud bo'lgan so'zlarning lug'aviy ma'nolaridan tashqari, ularning moddiy tarkibini va fonemik strukturasi saqlagan holda o'zgartirish natijasida vujudga keladi" [3]. Til birliklarini leksik-semantik usul orqali hosil bo'lishi xususida G.A. Martinovich esa T.V. Jerebiloga qaraganda biroz boshqacharoq fikrni ilgari suradi. Unga ko'ra: "...so'z yasashning leksik-semantik usuli til birliklarining ma'nolarini o'zgartirib, keyinchalik ularni omonim so'zlarga tenglashtirishdan iboratdir. Biroq, ular bu jarayonda struktur jihatdan bir xil, ammo turli xil (etimologik mustaqil) so'zlar sifatida e'tirof etila boshlangan. Ular o'ziga xos sintaktik va paradigmatic aloqaga ega bo'lib, ba'zan boshqa leksik-grammatik, stilistik va funksional xususiyatlarga ega bo'ladi" [4]. Tilshunos olimlardan yana biri Ye.E. Naumenko ham tilda so'zlarni leksik-semantik usulda paydo bo'lishi xususida o'zining qimmatli fikrlarini bayon etgan. Uning ta'kidlashicha: "Leksik - semantik usul orqali so'z yasashi nomorfologik usul bo'lib, tilda mavjud leksema natijasida, omonim leksemalarning yasashi orqali yangi til birliklari hosil bo'ladi" [5]. Ushbu fikrni isbotlash maqsadida olim rus tilidagi dolg – qarz, dolg – majburiyat, brigadir – ishlab chiqaruvchi korxonadagi rahbar xodim, brigadir - armiyadagi maxsus harbiy xodim, kulak – musht, zarba, kulak – mashina detallarining do'ng qismi, kulak – qo'lga olmoq, bo'ysundirmoq, kulak – olib sotar, chayqovchi, kulak - badavlat amaldor shaxs singari misollarni keltiradi [6]. Olimning qayd etishicha, bu tarzda shakllangan terminlar uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Ularning aksariyati zamonaviy til tizimida hosila bo'lmagan va aksincha, bir vaqtlar ularni shakllantirgan so'zlar bilan uzviy aloqasi mavjud emas [7].

Taniqli rus tilshunosi V.P.Danilenko leksik – semantik usul orqali til birliklarining hosil bo‘lishi xususida o‘zining fikrini quyidagicha bayon etadi: “Umumiste’mol leksikasining terminlashuvi jarayonida uning ma’no turlari, mazmuni va muayyan obyektini, voqelikni ifodalay olish jihatlari bilan ajralib turadi. Bir tarafdin metafora asosida denotatlarning almashinuvi yuzaga kelsa, boshqa tarafdin esa so‘z ma’nolari tizimi va ilmiy tushunchalar tizimining bevosita aloqasi bois signifikatlarning mazmuni uzluksiz ravishda chuqurlashib boradi” [8, 23].

O‘zbek tilshunoslaridan H.Shamsitdinova o‘zbek tilida leksik-semantik usul bilan termin yasalishi haqida o‘zining quyidagi fikrini bildiradi: “Leksik-semantik usul bilan termin yasalishi haligacha alohida bir tadqiqot obyekti bo‘lgan emas. Biroq, ushbu usul bilan termin yasash haqidagi dastlabki qarashlar va ilmiy yondashuvlar haqida S.Ibrohimov tomonidan ancha oldin qayd etilgan edi [9, 136]. Keyinchalik esa ushbu mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlarni terminshunos olim R.Doniyorov tomonidan olib borilganligi va uning o‘zbek tili ilmiy-texnika terminshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shganligi ma’lum. R.Doniyorov o‘zbek tili texnikaviy terminologiyasi leksik-semantik usul bilan termin yasalishi hisobiga boyib borishini alohida yoritgan holda, umumiste’moldagi so‘zlardan yasalgan terminlarni to‘rtta mavzuiy guruhlariga ajratadi: 1) odam va hayvon a‘zolarining nomlaridan yasalgan terminlar; 2) uy- ro‘zg‘or buyumlari nomlari bilan bog‘liq terminlar; 3) maishiy narsa-buyum nomlaridan hosil bo‘lgan terminlar; 4) nomashinaviy texnikaga oid terminlardan yasalgan terminologik birliklar [10, 56].

Tadqiqotga oid manbalarni, to‘plangan materiallarning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan tibbiyot sohasi terminlari leksik-semantik usul bilan yasalishiga ko‘ra har ikki tilda o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi bilan izohlanadi.

Natijalar. Ingliz va o‘zbek tillarida leksik-semantik ma’noga ega bo‘lgan LOR (otorinolarinologiya) terminlari ko‘pincha o‘zining tibbiy ma’nosidan tashqari, obrazli yoki emotsional qo‘shimchalarni ham anglatadi. Quyida shunday terminlarga misollar keltiramiz. Masalan: ingliz tilida **voice** (o‘zb.) **ovoz** terminini olib qaraydigan bo‘lsak, tibbiyot sohasida ovoz chiqarish qobiliyati bilan bog‘liq jarayon tushuniladi. Ushbu termin “zimma”siga leksik-semantik usuli ta’sirida qo‘shimcha ma’no yuklanadi. Ya’ni, terminning semantik ko‘lami yanada kengayadi, ba’zi holatlarda esa metaforizatsiya hodisasi yuz berishi natijasida ma’no ko‘chishi sodir bo‘ladi. Bu o‘rinda muayyan leksema birlamchi nominatsiyasidan tashqari ikkilamchi nominatsion va motivatsion funksiyaga ega bo‘lishi mumkin. Ingliz tilidagi **voice** (o‘zb.) ovoz leksemasining leksik – semantik usuli orqali hosil bo‘lgan til birligi sifatida kimningdir fikri, ta’siri yoki huquqi borligini anglatadi. Bu aslida ingliz tilidagi **“to have a voice”** iborasi bilan mutanosibdir. Masalan, **“Everyone deserves to have a voice in the discussion”** [11] - har bir kishi muhokamada o‘z fikrini bildirishga haqli. O‘zbek tilida ham shunday holat kuzatiladi. O‘zbekcha ovoz (ing.) **voice** leksemalari o‘zida biroz konnotativ xususiyatni namoyon qiladi. O‘zbek tilida:

“ovozi bor” — shaxsiy fikrga yoki huquqqa ega bo‘lish. Masalan, “U o‘z ovozi topdi” - U o‘z fikrini bildirishga muvaffaq bo‘ldi, degan ma‘no kelib chiqmoqda.

Shuningdek, **hearing – eshitish** til birliklari misolida ularning leksik-semantik usulda hosil bo‘lgan ma‘nolariga diqqatimizni qaratamiz. Masalan: **hearing – eshitish til birligining tibbiy (denotativ)** ma‘nosi: quloq yordamida eshitish qobiliyati ma‘nosini beradi. Uning leksik – semantik yoxud semantik usul orqali hosil bo‘lgan ma‘nosi birovning fikrini eshitish yoki tinglash tushunchalari bilan izohlanadi. Bu ingliz tilidagi “**to give someone a hearing**” so‘z birikmasi bilan teng demakdir. Masalan, “The manager gave him a fair hearing – menejer uning fikrini tingladi”. O‘zbek tilida: “**eshitish**” - **fikr yoki shikoyatni tinglash**. Masalan, “Uning shikoyatlarini eshitishdi” (uning shikoyatlarini diqqat bilan eshitishdi) ma‘nosi kelib chiqmoqda.

Bundan tashqari, yana bir LOR termini ingliz tilidagi nose – burun terminidir. Inson uchun muhim va hayotiy tana a‘zolaridan bo‘lgan burunning ham ahamiyati juda katta. LOR sohasi amaliyotida burun tana a‘zosi bilan bog‘liq ko‘plab kasalliklar uchraydi. Ularni davolash esa vrach mutaxassislarning ishi. Biz burunning tibbiy hamda anatomik ma‘nosini hid sezish va nafas olish uchun mo‘ljallangan a‘zo sifatida anglaymiz. Aslida, muayyan til birligining leksik-semantik usul orqali hosil bo‘lgan ma‘nosi ham ushbu terminning birlamchi nominativ xususiyatidan kelib chiqadi. Mazkur terminning, ya‘ni burunning ikkilamchi nominatsion xususiyati orqali shakllangan ma‘nosi “**sezish**” demakdir. Bu semantik jihatdan ingliz tilidagi “to have **a nose** for something — nimanidir tez va aniq his qilish qobiliyati”, ya‘ni “biron bir imkoniyatni tez payqamoq” iborasi bilan mutanosibdir. Masalan, “He has **a nose** for good business opportunities - u biznes imkoniyatlarini tez sezadi/payqaydi” degan ma‘no kelib chiqmoqda. Shunga o‘xshash ingliz tilida misol: “She has a nose for news – u yangiliklarni oldindan payqaydi” bu jumla konnotativ ma‘noda aytilgan bo‘lib, kishining yangiliklarni sezish qobiliyatini ko‘rsatadi. **O‘zbek tilida:** kishining muhim yangiliklarni darhol payqay olish qobiliyatini ifodalab keladi. LOR sohasida ancha faol va keng ko‘lamda qo‘llanadigan **burun - nose** terminining leksik-semantik usulda hosil bo‘lgan ma‘nosini har doim ham ijobiy baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ushbu leksik birlik o‘zining ikkilamchi nominatsion semantik - funksiyasida biroz salbiy ottenkani o‘zida mujassam qiladi. Masalan: **ingliz tilida:** “To stick one’s nose into someone’s business” - birovning ishiga aralashish/birovning ishiga burnini tiqmoq (o‘ziga tegishli bo‘lmagan narsalarga qiziqish) degan ma‘noda kelmoqda. Xuddi shunday biroz salbiy ottenkaga ega bo‘lgan, leksik –semantik usulda hosil bo‘lgan va qo‘llanilgan mazkur termini quyidagi kontekstda kuzatishimiz mumkin. **O‘zbek tilida:** “**burnuni ko‘tarmoq – (ing.) to turn up one’s nose**” – xudbinlik qilib, o‘zini boshqalardan ustun qo‘yish, boshqalarni mensimaslik ma‘nosini ifodalab keladi. Bundan tashqari, o‘zbek tilida burun termini ishtirokida hosil bo‘lgan “burunni toza tut” so‘z birikmasini tom ma‘noda tushunish noto‘g‘ri bo‘ladi. Uni kontekstda uchratganda

shunchaki, gigenadan ko'ra "muammodan uzoqroq yurish" yoki "qoidalarni buzishdan saqlanish" tarzida tushunish to'g'ri bo'ladi.

Muxokama. Yuqorida keltirilgan amaliy misollardan anglashiladiki, chog'ishtirilayotgan tillarda zarurat tug'ilishi sababli LOR terminologiyasida muayyan leksemalarning semantik o'zgarishi, ularning ma'no ko'chishi, terminologik birliklarning neytral ma'nolari orasidagi o'zaro bog'lanish uzilib, ayrimlarining xoslanishi orqali yangi terminning hosil bo'lishi, ya'ni muayyan leksemalar semantikasining kengayishi kuzatiladi.

Tilshunos olim L.Ya.Lachimova tilshunoslikda leksik - semantik usul vositasida termin yasash xususida o'zining quyidagi qimmatli fikrini bildiradi: "...so'zning semantik rivojlanishi tilning voqelikni metafora yordamida o'zlashtirish va ilmiy tushunchalar orqali bilish, tushuncha ishtirokidan iborat ikki funktsiya ehtiyojiga bo'ysundirilgani ta'kidlanadi. Unda ikki asosiy yo'nalish mavjudligi qayd etiladi: birinchidan, leksema denotatlarining almashuvi ro'y beradi, bu jarayon asosida metafora yotadi. Ikkinchidan esa, so'z ma'nolari sistemasi bilan uzviy aloqasi tufayli signifikatlarning mazmuni doimiy ravishda o'zgarib boradi [12, 293]. Olima o'z fikrida davom etib, leksemaning asl ma'nosi asosida keyingi ma'nolarning rivojlanishi natijasida termin vujudga kelishini ta'kidlaydi. Aksariyat tilshunoslarning ta'kidlashicha, leksik-semantik usul orqali termin hosil qilishda metafora asosiy o'rin tutadi. Chunki, jonli muloqotdagi so'zlarning muayyan xususiyatini, ya'ni leksik (shaklan) o'xshashligini, rang-tusidagi o'xshashlikni asos qilib olish yo'li bilan yangi-yangi terminlar vujudga keladi [13, 109].

Leksik - semantik usul va uning natijasida yangi til birliklarining paydo bo'lishi haqida ko'plab tilshunos olimlar o'zlarining munozarali fikr va qarashlarni bildirib o'tishgan. "Slovar lingvisticheskix terminov – tilshunoslik terminlar lug'ati" muallifi O.S.Axmanova ham bu masala xususida o'z fikrini quyidagi shaklda ilgari suradi: "Leksik-semantik usul deganda – tilda allaqachon mavjud bo'lgan so'zlarning semantikasi o'zgarishi yoki kengayishi natijasida yangi leksik birliklar paydo bo'ladigan so'z yasash usulidir. Yangi leksik birliklarning yaratilishiga olib keladigan so'z semantikasidagi o'zgarishlar ikki xil bo'lishi mumkin. Ya'ni, polisemantik so'zning turli ma'nolari turli omonim so'zlarga aylanishi natijasida yangi so'zlar paydo bo'ladi. Ikkinchi esa, oldin mavjud bo'lgan so'zlarni qayta ko'rib chiqish natijasida, ya'ni, bir so'zning semantikasini ikkiga bo'lish orqali omonimlar shakllanishi mumkin. Masalan: **qizil** (1-ma'nosi: **rang**) – **qizil** (2-ma'nosi **inqilobiy faoliyat bilan bog'liq jarayon**); **palata** – 1) joy; **palata** – 2) muassasa" [14] kabi terminlar misol tarzida keltirilgan.

Akademik V.V.Vinogradovning ta'kidlashicha: "Hozirgi zamon tilshunosligida leksik-semantik so'z yasash usuli ma'lum bir lisoniy jarayon bo'lib, umumiy qabul qilingan polisemantik so'zlarning omonimlarga bo'linishi bilan izohlanadi. Leksik-semantik usul bilan mavjud bo'lgan so'zlarning ma'nolarini o'zgartirish natijasida yangi so'zlar va ularning qo'shimcha semantik xususiyatlari paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda,

tilda mavjud bo'lgan ayrim so'zlar vaqt o'tishi bilan o'zining oldingi fonematik tarkibi va morfemik tarkibini saqlab qolgan holda qo'shimcha lug'aviy ma'no kasb etadi. Natijada, leksik-semantik usulda shakllangan yangi so'z va so'z birikmalari hosil bo'ladi. Bu degani, polisemantik so'zlarning vaqt o'tishi bilan bir-biri bilan ichki aloqasini yo'qotishi natijasida yangi va qo'shimcha ma'no yuzaga keladi, demakdir" [15, 186].

O'zbek tili LOR terminlarining leksik-semantik usul bilan yasalishi sof o'zbekcha yoki o'zbek tilida avvaldan qo'llanib kelgan, shuningdek, ruscha so'zlarni LOR sohasi terminlari bilan parallel tarzda qo'llanishi bilan ham izohlanadi. O'zbek tili LOR terminlari umumadabiy til leksikasining turli qatlamlari leksik birliklari ma'no ko'chishi natijasida yuzaga kelganligini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin. Masalan: *ko'rik* (tibbiy ko'rik, LOR vrach-mutaxassisining ko'rigi/medosmotr); *rasmiylashtiruv* (tibbiy ma'lumotnoma va boshqa tibbiy hujjatlarni rasmiylashtiruvi/oformleniye med.spravka yoki med.dokument); *rivojlanish* (adenoid o'smalarining o'sishi, rivojlanishi/adenoidning progressiv shakli); *shubha* (shubhali tashhis, shubhali tibbiy ma'lumot/somnitelniy diagnoz); *egri* (burunning egriligi, qiyshiqligi/krivoy nos); *tezkor* (tezkor tibbiy yordam, tezkor jarrohlik/skoriy med.pomosh); *muqobil* (muqobil dori vositalari hamda preparatlari/analog dori vositalari) va boshqalar shular qatoridan o'rin egallaydi.

Bu kabi terminlarning integral xususiyatlari ingliz tili tibbiy terminlarida ham kuzatiladi. Masalan: *cleaning* (ENT cleaning); *circulation* (blood); *changeable* (changeable temperature/fever); *open* (open mouth); *law* (medical law); *break* (surgery/operational break); *increase* (increase of temperature); *incidence* (patient or treatment incidence); *kind* (kind of illness); *funds* (medical organizations' funds); *free* (free medical service); *security* (medical security); *disc* (rupture disc); *agent* (agent of medical company); *application* (medical application); *act* (medical act); *duty* (medical duty); *examination* (medical examination) va b.

Xulosa. Ushbu ilmiy ishda keltirilgan amaliy misollar leksik-semantik usul vositasida umumiy anatomik ildizlardan ixtisoslashgan tibbiy, xususan LOR terminlarining yangi ma'nolarini yaratishga yordam beradi va ularni tibbiyot sohasi uchun xoslanishini ta'minlanishiga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, leksik-semantik usul orqali hosil bo'lgan terminlarning to'g'ridan to'g'ri yoki denotativ ma'nosidan tashqari egallagan qo'shimcha ma'no ottenkalari hisoblanadi. Chog'ishtirilayotgan, ingliz va o'zbek tillarida leksik-semantik usulda hosil bo'lgan til birliklari ma'nolari metafora, metanomiya va evfemizm singari turli semantik usullar vositasida yasalishi ham mumkin. Har ikkala tilda leksik-semantik usulda hosil bo'lgan LOR terminlariga quyidagi misollarni keltirish o'rinlidir. Ingliz tilidagi ear – quloq termini ishtirokida “quloq soling” so'z birikmasi kimnidir tinglashning tom ma'nodagi harakatinigina emas, balki kimnidir hamdardlik bilan yoki e'tibor bilan eshitishni anglatadi. Shuningdek, o'zbek tilida “o'tkir quloqli” so'z birikmasi ham leksik-semantik usulda hosil bo'lgan til birliklaridan biri bo'lib, ko'chma ma'noda bu ibora nafaqat yaxshi eshitadigan, balki chuqur idrok etuvchi

yoki narsalarni tez payqaydigan odamni ifodalab keladi. Shuningdek, ingliz tilidagi **throat** – **tomoq** LOR termini ishtirokida leksik-semantik usulda yasalgan **“tomog‘iga yopishmoq”** so‘z birikmasini tom ma‘noda tushunish to‘g‘ri bo‘lmaydi, uni muayyan bir kontekstda uchratganimizda kimnidir **nizoda, munozarali bahsda** yoki **ma‘lum bir tajovuzkor holat bo‘lmoq** tarzida anglash va tushunish to‘g‘ri bo‘ladi. **“Tomog‘idan o‘tmoq”** so‘z birikmasi garchi, lug‘aviy ma‘noda **bo‘g‘izdan, halqumdan o‘tayotgan narsa va jarayonni** anglatrsa-da, aslida uni **noilojlik bilan qabul qilmoq** ma‘nosida tushunish to‘g‘ri bo‘ladi.

Yuqoridagi misollar LOR leksikasi bilan bog‘liq terminlarni ingliz va o‘zbek tillarida qanday qilib metaforik, majoziy yoki ikkilamchi nominatsiya xususiyati orqali qo‘shimcha ma‘no ottenkalariga ega bo‘lishini ko‘rsatadi hamda ushbu terminlar vositasida til lug‘at boyligini takomillashib, boyib borishiga xizmat qiladi. LOR terminlarining 18.2 % leksik - semantik usulda hosil bo‘lgan terminlar ekani aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ишъкилдина З.К. Мир, накуи, культуры, образования.//Лексико-семантическое словообразование в русском и башкирском языках. 2014.М.: Журнал. №2 (45) С-238/
2. Немченко В.Н. Современный русский язык. Словообразование. – М.: 1994.
3. Жеребило Т.В. Термины и понятия: Морфемика. Словообразование: – Назрань. 2011.
4. Мартинович Г.А. Терминологический словарь: русский язык, стилистика, культура речи. СПб. 2006.
5. Науменко Е.Э. Лексико-семантический способ словообразования английской идиоматической лексики // [Э/р]. – Р/д: http://www.pglu.ru/lib/publications/University.../II/ulch_2009_II_00023
6. O‘sha manba:
7. O‘sha manba:
8. Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: 1977. – С. 24.
9. Шамситдинова Х. Ўзбек тили илмий терминологиясини тартибга солиш тамойиллари. – Т.: 1991. – Б. 136.
10. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. Т.: 1977. - Б. 56.
11. Тадқиқотнинг мазкур праграфида ЛОР терминлари қўлланилган инглизча жумлалар ва контекстлар АВВУУ Lingvo хб электрон луғатидан олинди.
12. Лачимова Л.Я. Лексико-семантическое словообразование//Современный русский язык: Практическое пособие.2019. М.: С-293.
13. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари.филол.фанлари докт-р. дисс... (DSc)Тошкент: Б-109.
14. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: 1966.
15. Виноградов В.В. Словообразование в его отношении к грамматике и лексикологии // Изб. труды. Исследования по русской грамматике. - МЛ: Учпедгиз, 1975. С-186.